

«Suv – mo'jiza» tanloviga

SUVSIZ YASHAB BO'LMAYDI

Ko'zingizni bir zum yumib, tasavvur qiling: ichishga suv yo'q, qo'lingizni ham yuva olmaysiz, demak, onamiz ham bugun taom tayyorlay olmaydi. Ko'rdingizmi, suvsiz yashab bo'lmaydi. Bu ne'matni asramasak, u qurib, tugab boraveradi. Toza suvning uvolidan qo'rqaylik. Uyda, maktabda suvning behudaga sarflanishiga yo'l qo'ymaylik. Tengdoshlarimizni ham shunga chaqiraylik.

Elyor SIROJIDDINOV,
Namangan viloyatidagi
aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashgan
maktab-internatining 9-«A» sinf
o'quvchisi

GAZETA O'RGATDI

Men biologiya va kimyo faniga juda qiziqaman. Hozirda «Barglarda organik moddalarning hosil bo'lishi. Fotosintez» mavzusida ilmiy ishlanma tayyorlamoqdaman. Biologiya fani bo'yicha fan olimpiadasida qatnashib, tumanda II darajali diplom bilan taqdirlandim. Shuningdek, she'rlar ham yozib turaman. Chunki sevimli gazetam «Tong yulduzi»ni o'qib boramanda! Gazeta menga intilishni, izlanuvchanlikni o'rgatdi. Unga keyingi yil uchun ham obuna bo'lmoqchiman.

Umida MO'MINOVA,
Xorazm viloyati, Hazorasp tumani,
UrDU qoshidagi 2-akademik litsey
o'quvchisi

«KATTA BOBO BEKATI» BIZGA YOQDI

Men, ukam va singlim birgalikda «Tong yulduzi»ni o'qiydiz. Gazeta sahifalaridagi tengdoshlarimizning she'rlarini o'qib, havas qilamiz. Ayniqsa, bobolarimiz hayotiga oid ibratli voqealar berilayotgan «Katta bobo bekati» rukni bizga juda yoqdi. Shuning uchun keyingi yil ham gazetani o'qishda davom etmoqchimiz.

Nigora BOBODO'STOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Chiroqchi tumani

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2008-yil
17-noyabr
N:46
(66691)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

ISSN – 2010-6092

IBRAT OLSA ARZIYDI

Aziz o'quvchilar, ayni kunlarda sevimli nashringiz «Tong yulduzi» gazetasiga obuna mavsumi qizg'in davom etayotganidan xabaringiz bor.

Raqamlarga murojaat qilib, obunada faollik ko'rsatayotgan viloyatlar ro'yxatini keltirmoqchimiz:

Namangan viloyati bo'yicha 10-noyabrga qadar 3128 ta, Andijon viloyati bo'yicha 2474 ta, Samarqand viloyati bo'yicha 1487 ta, Farg'ona viloyati bo'yicha 1459 ta hamda Jizzax viloyati bo'yicha 1435 ta obuna ro'yxatga olingan.

O'quvchilar ma'naviyatini boyitishdek xayrli ishda peshqadamlilik qilayotgan viloyatlarni boshqa viloyatlarga ham ibrat qilsak arziydi.


Siz bunga nima deysiz?

O'N MINGTAGA ORTADI

Islom ANORBOYEV, Jizzax viloyati Xalq ta'limi boshqarmasining boshliq o'rinbosari:

«Tong yulduzi» gazetasi bizning ham bolalikdagi do'stimiz, deb bilamiz. Ayni paytda o'zining 80 yoshini nishonlashga shoshayotgan ushbu nashr bugungi kunda farzandlarimizning ham sevimli gazetasidir.

Xohlardimki, «Tong yulduzi»ni har bir o'quvchi muntazam o'qib borsa. Biz ustozlar ham hamisha shunga erishishga harakat qilamiz. Nasib bo'lsa, viloyatimizda 2009-yil uchun Respublika bolalar va o'smirlarning gazetasi «Tong yulduzi» obunachilari sonini o'n mingtaga yetkazamiz.



Gazetamizni Jizzax viloyatidagi maktab rahbarlari ham o'qishadi.

Samarqandlik yoshlar –
«Tong yulduzi» muxlislari.

Respublika o'quvchilar saroyida umumta'lim maktablari uchun 2009-2010-o'quv yiliga mo'ljallangan darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarining ixtisoslashtirilgan ko'rgazma-yarmarkasi ochildi. Ushbu yarmarka yurtimiz viloyatlarida davom etmoqda.

Bu haqdagi maqolani 8-betda o'qing.

Tengdoshlarim hayotiga oid yangiliklardan boxabar bo'laman, sevimli adiblarimizning yangi asarlarini birinchilardan bo'lib o'qiyman, «Quvnoq tanaffus»dagi hangomalarini o'qib, vaqtimni chog' o'tkazaman

DESANGIZ,

TEZROQ «TONG YULDUZI»GA OBUNA BO'LING!

Nashr ko'rsatkichimiz: 198

1. «Eng namunalı Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahri va viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.

2. «Eng namunalı tuman xalq ta'limi bo'limi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.

3. «Eng namunalı maktab, litsey, kollej»ga 6 ta sovrin: 3 dona televizor, 3 dona magnitofon.

BOLALARNING SIRLI DUNYOSI

Jurnalist safari hamisha yangilik keltiradi. O'tgan yilgi safarimiz taassurotlari hanuz bizni quvontiradi. Chunonchi, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari bo'ylab kezkanimizda, yangicha mavzular sohibiga aylangan edik.

Bolalarning sirli dunyosi bizlarni har gal o'ziga rom etardi. Vodiyluk tengdoshlaringiz, ularga rahbarlik qilayotgan bolajon insonlarning kelajak sari yorug' yuz bilan dadil qadam tashlayotganlari bizni sevintirdi. Tahririyatimizga vodiyluk o'quvchilardan maktublar kelishi ularning ijodkorligidan dalolat. Demak, «Tong yulduzi» o'quvchilarning eng yaqin do'sti. 2009-yilda ham vodiyluk o'quvchilarning umidimiz katta.

VODIY BO'YLAB...

Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Dilshoda Dadajonovani nafaqat Namanganda, balki Respublikada fidoyi rahbar, bolalar va o'smirlarning jonkuyari sifatida e'zozlashadi. Uning maorif sohasidagi ko'p yillik samarali mehnati bois viloyat o'quvchilari katta yutuqlarga erishgan.

O'z vazifasiga doimo sidqidildan yondashadigan, yangilikka intiladigan, hatto viloyatning chekka hududlaridagi ilm dargohlarini yayov kezdigan rahbar Dilshoda opani namanganliklar o'z do'sti, sirdoshi va ustoz deb bilishi ham shundan.

MA'MURA

Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Dilmurod Rahmatullayev bevosita bolalar dunyosida yashaydi. Ularning kelajak avlod uchun qayg'urishlarida yashirin bir sir borligini payqagandek bo'ldik. Sababi, o'zbek qizaloqlarining bog'cha yoshidanoq sportning gimnastika, suv sporti bilan shug'ullanishini orzu qilishining o'zi ko'z o'ngimizda sog'lom kelajakning ravon yo'llariga boshlab ketayotgandek, go'yo... Amalda bu ishlarga bosh-qosh bo'layotgan jonkuyar rahbar Dilmurod akaning bu borada erishgan muvaffaqiyatlari talaygina. Rahbarning faoliyatini kuzatganimizda, uning o'mak olsa arziqli ishlariga guvoh bo'ldik.

FERUZA

Bir yil avval «Tong yulduzi» gazetasiga Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshlig'i o'rinbosari Nazirjon Hakimov «Bolalarning katta armiyasi» deya ta'rif bergan edilar. Ta'riflari yakunida u kishi maktablarda har bir sinfdan hech bo'lmaganda 5 nafar o'quvchi «Tong yulduzi»ga obuna bo'lsin, deb istak bildirganlar. Yaxshi insonlarning ezgu istaklari tezda ijobat bo'lishiga guvoh bo'ldik. Negaki, Farg'ona viloyati o'quvchilari 2008-yil davomida sevimli gazetalariga obuna bo'lishda peshqadamligni qo'ldan bermadilar. Shunday ekan, 2008-2009-o'quv yilida ham vodiyluk o'quvchilar «Tong yulduzi» gazetasining eng yaqin do'stlari qatoridan joy olishi shubhasiz.

GULYUZ

10-noyabrdan 10-dekabrgacha bir oy mobaynida yurtimizda yong'in xavfsizligi oyligi bo'lib o'tadi

LOQAYDLIK QIMMATGA TUSHMASIN

Olovdan ehtiyotsizlik bilan foydalanish, uning tili o'tkir va ayovsiz ekanligiga bepisand munosabatda bo'lish bugungi kunda ko'plab noxush hodisalarga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2008-yil davomida respublikamiz bo'yicha 1286 ta yong'in sodir bo'lib, unda ko'rilgan moddiy zarar miqdori 149 mln. so'mdan oshib ketgan. Yong'in natijasida 33 nafar fuqaro turli darajada kuyib, tan jarohati olgan. Yillar davomida mehnat qilib ko'tarilgan imorat va orttirilgan mol-mulk sanoqli daqiqalar ichida kuyib kul bo'lishi achinarli hol, albatta. Ayni kunlarda yurtimizda 10-noyabrdan 10-dekabrgacha yong'in xavfsizligi oyligi deb e'lon qilingan.

Yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan o'tkaziladigan targ'ibot-tashviqot va tushuntirish ishlariga e'tibor berib, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinsa, har qanday ko'ngilsiz hodisalarning oldi olingan bo'lardi.

SH.AKBAROV,
inspektor, katta leytenant,
E.RISBENOV,
kichik inspektor, kichik serjant

BEBAHO BOYLIK

Avloddan-avlodga meros bo'lib qoladigan bebaho boyligimizdan biri bu tildir. O'zbek tili uzoq tarixga ega. Bu tilda ulug' shoirlar, olim-u ulamolarning ijod qilgan. O'zbek tili dovrug'ini dunyoga yoygan Hazrat Alisher Navoiy esa uni eng yuksak cho'qqilarga ko'targan.

Men faoliyat yuritadigan Toshkent Bank kollejida ham o'zbek tilining fan sifatida chuqur va mukammal o'qitilishiga katta e'tibor beriladi. Talabalar bilan tilimizga oid qiziqarli tadbirlar, tilshunos olimlar, adib-u shoirlar, turli soha mutaxassislari bilan suhbatlar tashkil etish ana tusiga kirgan. Bu xayrli ishimizda nafaqat ona tili va adabiyot o'qituvchilari, ma'naviyat bo'limi, kasaba uyushmasi, balki o'quvchilar ham o'z hissasini qo'shadi.

Gohida ko'cha-ko'yda o'zbek va rus tilini aralashtirib so'zlashayotgan yoshlarga duch kelamiz. Bu holat ko'pchilikni ranjitadi. Istardimki, Respublikamiz o'quvchilari o'z tiliga e'tiborli bo'lishsa; hamisha hurmat bilan qarashsa.

Zero, ajdodlarimiz bejiz «Tilga e'tiborsiz – elga ixtiyorsiz», deb aytishmagan.

Karima SHAYKOVA,

Toshkent bank kolleji tillar kafedrasi mudirasi

Internet yangiliklari

«OSKAR»GA NOMZOD MULTIFILMLAR

Bu yil Amerika kinoakademiyasiga «Volt», «Delga», «Xorton», «Ajdard ovchilari», «Kung fu Panda», «Madagaskar» kabi 14 ta multfilm «Oskar» mukofotiga tavsiya etildi. Kinoakademiya hay'at a'zolari bu 14 multfilmdan 3 tasini saralab, multfilm nomlarinin «Oskar»ga haqiqiy da'vogar sifatida 2009-yilning 22-yanvarida e'lon qiladilar. «Oskar» mukofotiga sazovor yagona multfilm esa 2009-yilning 22-fevralida ma'lum bo'ladi.

GAGARINNING IZDOSHI

Rossiyalik 11 yoshli Sergey Davitaya Buyuk Pyotr ordeni sohibi, etnograf, sayohatchi bo'lishi bilan birga, endilikda yosh fazogir degan nomga ham sazovor bo'ldi. Gap shundaki, Sergey o'z tengdoshlari orasida 1-bo'lib samolyotda eng yuqori balandlikka parvoz qildi.

Boyqo'ng'ir kosmodromi ma'muriyati bu parvozga rozilik bermaganligi sababli, parvoz AQSHda amalga oshirildi. Buning uchun Amerika kompaniyasi Boeing samolyoti ichini yumshoq qoplamalar bilan qoplab, tajribaga tayyorlab berdi. Tajriba o'tkazilayotgan samolyot eng yuqori balandlikka ko'tarilgach, dvigatellar o'chirildi va samolyot pastga qulay boshladi. Sergey vaznsizlik holatida osmondan yerga muvaffaqiyatli qo'ndi. Hozirda o'tkazilgan tajribadan kichik fazogir mamnun. Vatandoshlari uni bo'lajak Gagarin deb atashmoqda.

**«YAGUAR» – SUPERKOMPYUTER**

AQSHda shu nomda superkompyuter yaratildi. Ushbu kompyuter AQSH energetika vazirligiga tegishli bo'lib, u bir soniya ichida ming trilliondan ziyod amallarni bajarish imkoniyatiga ega. Ilmiy-texnikaviy tilda bu 1,64 petaflop tezlik deganidir. Hozirda «Yaguar» superkompyuteri AQSHning Tennessee shtatida joylashgan Oak-Ridj shahrida saqlanmoqda.

ZEBO qiz tayyorladi


326-Xalq amaliy san'ati
maktabining
9-«V» sinf o'quvchisi
Iroda ORTIQOVA,



Oymomon, oymomo,
Buncha mendan yiroqsan?
Qo'l yetgudek joydasan,
Ammo o'day yartiq.
Tunlari chitrog'imsan,
Kunduzi ortobimsan.
Tunda nuring socharsan,
Yo'llarimda chitroqsan.
Ting suvdek zilolsan,
Go'zal soching taraysan.

OYMONO

Toshkentdagi 46-maktabning
6-«D» sinf o'quvchisi
Abbos ESIRGAPOV,



Mening maktabdagi onamsiz,
Jonajonim ustozim.
Quchog-quchoq gul sizga,
Mehribonim ustozim.
Harf tanitdingiz bizga,
Hisobni o'rgatdingiz.
Endi kara javalni,
Ko'zni yumib aytamiz.
Kamolga yetishimiz,
Sizga eng katta orzu.
Bilimimiz, mehnimiz,
Mehnatimiz evazi-ku!

USTOZIMGA


Toshkentdagi 24-maktabning
9-«V» sinf o'quvchisi
Sanjar DIYOROV,

Yurak misli to'xtamas tulpor,
Sof tuyg'ular mag'rur chavandoz.
Tong sabosi hamrohim bo'lib,
Hur samoga etarman parvoz.
Hayotning pok varaqlariga,
Yana ajib hislarni bitdim.
Nagshin chizib munavvar dilga,
Ajib orzu tortini chertdim.

Derazamni ogartirar tong,
Rangin nurlar aylar ishora.
Quyosh erur daslabki qalam,
Tillardagi sirti ibora.

TONGGI HISLAR

Siz zamonaviy ko'rishishni
bilasizmi?
Barmoqlarini qisirlatib, oyogini
likillatib, boshni to'gishitrib, yelkani
urtshitrib... va hokazo.
Salomlashishning ham me'yoriy
chegarasi bor. Kishilarning bir-birini
yuzidan o'rib ko'rishayotgani ham
unchalik yuqumli holat emas.
Yuksak madaniyat beshigida
kamol topgan bobolarimiz salom
kalomini hurmat bilan boyitish
maqsadida, go'lni ko'ksiga go'yish
kabi go'zal odatlarni bizga meros
goldirganlarini unutishga haqqimiz
yo'q!



TURLI ODATLAR

TOSHKENTNING 2200 YILLIGIGA

SHOSHNING BUYUK DARVOZASI

Sobir RAHIMOV
tumani



«Tong yulduzi» – 2008



Nashrga tayyorlaganlar:

To'liqin HAYIT,
Feruza JALILOVA,
Norxo'ja RAIMXO'JAYEV,
Ravshan TO'LAGANOV,
Yusuf FAYZULLO,
Nargiza ABDULLAYEVA,
Manzura UBAYDULLAYEVA,
Fazliddin SHOYODGOROV

Ushbu kitobchani tayyorlashda yaqindan ko'mak
berganlari uchun Sobir Rahimov tuman Xalq ta'limi
bo'limi rahbarlariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

«Tong yulduzi»
Toshkent – 2008

Kimyoning eng ulkan goidasini, Yaradi bir olim kimyo jadvalda. Juda ko'p moddalar jamlamasini, Mendeleev tuzdi davriy qonunda.

Kimyoning bog'lanish qonuniga. Lomonosov, Lavnaze ta'limotlari, Yo'l ochdi Daltonga, kashfiyotiga. Tonning kristall parchalari, Kimyoning bog'lanish qonuniga.

Kimyoning eng ulkan goidasini, Yaradi bir olim kimyo jadvalda. Juda ko'p moddalar jamlamasini, Mendeleev tuzdi davriy qonunda.

Bundan bir necha ming yillar ilgari, Bir nechta olimlar boshin qotirib, Dastlabki kimyoning tushunchalari, Aniqlab topdilar rosa qidirib.

So'ngra, asta-sekin kimyo dunyosi, Ochildi juda ko'p olimlar bilan, Hozirda mana shu ta'lim bahosini, O'qishlarni qiyin o'qitish bilan.

Lomonosov, Lavnaze ta'limotlari, Yo'l ochdi Daltonga, kashfiyotiga. Tonning kristall parchalari, Kimyoning bog'lanish qonuniga.



KIMYO DUNYOSI

– Samimiy subhatingiz uchun rahmat. O'quvchilaringiz hamisha katta yutuqlarga erishib, sizlarni xushnud etaverishim.

– Avvalambor, har bir ustoz o'quvchisini o'z bolasidek ko'rishi kerak. Shunda ular bir-birlarini tez tushunishadi. Rosidanam, ba'zan kishi charhab ketadi, ammo biror o'quvchimiz fan, san'at yoki sport sohasida biror yutuqqa erishib e'tirof etilsa, kuchimizga kuch qo'shilgandek bo'lib, charchoqlarimiz tumanidek tarqab ketadi.

– Shuncha o'quvchi, ularning turli fe'l-atvorlari, barchasi bilan muomala qilish kishini charchab qo'yamaydimi?


– Tibor bergan bo'lsangiz, tumanimizning barcha maktablarida «Yangi avlod bog'i» tashkil etilgan. Bizning o'quvchilar ham boshqqa tengdoshlari kabi bu ishlarga jalb qilingan.

– O'quvchilarni bo'sh vaqtlarini foydali ishlarga jalb etish g'anday yo'lga qo'yilgan?

– Ha, bu kitob qilingan ishlarining sarhisobi, golaversa, o'ziga xos dastur sifatida ham ahamiyatlidir.

– Maktabda olib borilgan ma'naviy va ma'rifiy ishlar borasida kitob chiqarigan ekanisizlar.



– O'quvchilarni bo'sh vaqtlarini foydali ishlarga jalb etish g'anday yo'lga qo'yilgan?



Sobir Rahimov tumani poytaxtimizning o'ziga xos an'alariga ega bo'lgan tumanlaridan biri hisoblanadi. Toshkentdagi ko'plab oliy o'quv yurtlarining talabalari istiqomat qiladigan qulay yotoqxonalarining ko'pchiligi shu yerda joylashib, ulkan talabalar shaharchasini barpo etishi, Milliy universitet, Politehnika universiteti va Tibbiyot akademiyasi kabi nufuzli oliy o'quv yurtlarining ham shu hududda joylashgani bu tumanda istiqomat qilib, maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlarga ham alohida zavq bag'ishlaydi. O'quvchilar yoshlikdanoq aka-opalari kabi talaba bo'lishdek ulkan baxt tuyg'usi bilan yashaydilar. Tumanda 32 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi mavjud bo'lib, unda 43150 nafar o'quvchi-yoshlar 2003 nafar malakali muallimlardan bilim sirlarini puxta egallamoqdalar. Shuningdek, tumanda 3 ta maktab-internat, 7 ta sport maktabi, 3 ta suzish havzasi va bolalar ijodiyot markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, 57 ta maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan bolajonlar maktab yoshiga qadar zarur bo'lgan ta'lim-tarbiya saboqlarini olmoqdalar.



– Aka-rasmlarni tomshoq qilar ekanisiz, bir narsa sizni hayratga solishi shubhasiz. Aka-rasmlar tomshoq qilar ekanisiz, bir narsa sizni hayratga solishi shubhasiz. Aka-rasmlar tomshoq qilar ekanisiz, bir narsa sizni hayratga solishi shubhasiz. Aka-rasmlar tomshoq qilar ekanisiz, bir narsa sizni hayratga solishi shubhasiz.



– Aka-rasmlarni tomshoq qilar ekanisiz, bir narsa sizni hayratga solishi shubhasiz. Aka-rasmlar tomshoq qilar ekanisiz, bir narsa sizni hayratga solishi shubhasiz. Aka-rasmlar tomshoq qilar ekanisiz, bir narsa sizni hayratga solishi shubhasiz. Aka-rasmlar tomshoq qilar ekanisiz, bir narsa sizni hayratga solishi shubhasiz.



KUYLAGAN RASMLAR MOZIYLARDAN

SHE'RIYAT GULSHANI

Ko'zi yonar ipak yo'lining
Qorasaroy bo'ylarida.
Sezganmisan, bolakay, uning
O'tmishini kuylarida.
Qaffol Shoshiy – buyuk bobo,
Chiqib kelar eshigidan.
Olib qochar g'amni yulib,
Uning oltin etagidan.
Qichqiriqmi, ko'zi tiniq,
Qayga shoshar, qani, ayt-chi?!
Qanday kuy u, hazin qo'shiq,
Bir lahzaga ortga qayt-chi?!



Har tomonga yelgan shamol,
Ne ko'rding san moziy tunda?!
Ulug' ajdod, san bermalol,
Yashayapsan, shu makonda.
Amir Temur darvozasi,
O'tmishingdan bir nishona.
Qorasaroy ovozasini,
Ketdi har yon, zo'r koshona.
Chig'atoyim? So'ra mendan,
Juda qadim asli tarix.
Ibrat olgan g'anim sendan,
Haqni so'yla, sen muarrix.




Xo'ja Ahror so'zlarini
Shu yer bir kun jim tinglagan.
Oybek domla izlarini,
Ko'rganmisan yaltiragan?
Qodiriy ham o'tgan bundan,
Unutolmas Kumushbibini.
Saboq olgan balki sendan
Yana bitta dono bibi.


Shonli tuman ulug'imsan,
Poytaxtimda bir durdona.
Senga sharaf, borlig'imsan,
Jon makonim, ey mardona!



SAODAT



Shokolad qutisiga kerakli bo'lakni qo'ying.



Ortiqchasini olib tashlang.

DARAXTLAR RIVOYAT SO'YLAYDI

«Bekorchi ishlardan o'zingni asra. Erta tongdan o'tadigan kuningni rejalashtirib ol». Bu Bahovuddin Naqshbandiyning gaplari edi.

Bizning akademik litseyimizda yaxshi bir an'ana bor. Tarbiyaviy soatlarimiz gohida muzeyda, gohida kino-teatrdan o'tadi. Bu galgi darsimiz Buxoroda bo'ldi.

Uzoq safarimiz davomida biz o'quvchilar orasida do'stlik rishtalari yana-da mahkam bog'landi. Qiziqarli suhbatlar, o'yin-kulgular, ayniqsa, qo'shiq aytish bo'yicha bellashuvlar shirin xotiraga aylandi.


Buxoroni aylanar ekanmiz, hayratimiz ummoni oshgandan oshdi. Tarix fanidan o'qiganlarimizni o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Buxoro arki, Bahovuddin Naqshbandiya ziyoratgohi, Abdullaxon, Ulug'bek madrasasi kabi tarixiy yodgorliklar go'yoki tilga kirgandek... Kutubxonalar, bozor do'konlarini qurgan ustalar mahorati tahsinga loyiq.

Ayniqsa, Labi Hovuz bo'yidagi daraxtlar e'tiborimizni tortdi. Go'yoki, daraxtlar bizga rivoyat so'ylardi. Aytishlaricha, bu daraxtlar 1477-yilda ekilgan ekan. Ularning tanasida yillarning armonlari borligini sezdik. Barglari boshqa daraxtlarnikiga o'xshamas edi.

Taassurotlarga boy bo'lib poytaxt sari qaytar ekanmiz, avvalo, Buxoro safarini uyushtirgan akademik litseyimiz direktori Baxtiyor aka, tarix fani o'qituvchimiz Surayyo Akromova, rus tili muallimimiz Valentina Vladimirovna'larga minnatdorchilik bildirdik.

Poytaxtimizdagi S.Rahimov nomli sharqshunoslik akademik litseyining 212-guruh o'quvchilari:

Alisher, Jahongir, Temur, Sunnat, Komila, Sitora, Katya va Anita.



Viloyatlardan kelgan ustozlar mustaqillik maydonida gul go'yish marosimida.



— Ustozlar va murabbiylar bayrami arassida viloyatlardan kelgan 170 nafar o'qituvchilar maktabingizga tashrif buyurtshgan ekan. — Ha, ularni kutib oldik, maktabimiz ularda katta qiziqish uyg'otgan bilan o'zaro tajriba almashdik. Kezi kelganda, maktabimizni dunyo talablari darajasida ta'mirlab, barcha jihozlar bilan ta'minlashga katta yordam bergan homiylarimizga minnatdorchilik bildiraman.

qo'yganmiz.

uchun juda maroqli. Bittinchi sonli pedagogika kolleji bilan ham yakshani hamkorlikni yo'lga geografiya fakultetida o'tkazish an'anasiga aylangan. Bu bolalar

Geografiyadan ochiq darslarni Milliy universitetning — Har bir darsni esda qolardi bo'lishiga harakat qilamiz.

Suhbatimiz yana davom etdi.

yubordi.

blimiga ishongan o'quvchilar taklifi opani quvontirib

refalashirilgan ochiq darsga taklif etib kelishdi. O'ziga,

chog'ida 8-sinf o'quvchilari tarix fani bo'yicha o'tkazilishi

mehnati singgan Nasiba opa Nishonova bilan suhbatimiz

Maktab direktori maorif sohasida salkam yarim asrlik


puxta bilim bermogdalar.

uch mingga yaqin o'quvchilarga turli fanlar bo'yicha

hisoblanadi. Maktabning 103 nafar malakali muallimlari

o'z nufuziga ega bo'lgan bilim maskanlaridan biri

243- maktab nafaqat poytaxtimizda, balki respublikamizda ham



TUMANDA SHUNDAY MAKTAB BORI

QAFFOL SHOSHIYNING QISQACHA TARJIMAYI HOLI

Qaffol Shoshiy milodiy 903-yilda Toshkentda tug'ildi. Asl ismlari Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil Qaffol Shoshiydir. U kishi qulfsoz bo'lganlar. O'sha davrlarda allomalar ma'lum bir hunar orqasidan halol rizq-ro'z topib, ozga qanoat qilib, shukronalik bilan yashaganlar.

Qaffol Shoshiy dastlab ona shahrida, so'ngra, Buxoroda, Samarqandda o'qib, huquqiy bilimlarini mustahkamlagan. Undan so'ng, Hijoz, Damashq, Makka shaharlariga borib, yirik olimlar bilan munozaraga kirishib, juda ko'p dunyoviy masalalarda yuksak bilimga ega ekanliklarini namoyish etganlar.

U kishi 906-yilda Toshkentda vafot etgan.

YOZGAN KITOBLARI

1. «Odob al-Qozi» («Qozining fe'l-atvori»).
2. «Odob al-bahs» («Bahs odobi»).
3. «Husni jadal» («Dialektika go'zalligi»).
4. «Javomi'ul kalim» («Javohirlar sandig'i»).



*Eyfel minorasi, Parij (Fransiya), Balandligi 300 metr. Bunyod bo'lgan vaqti 1889-yil.

*Xetren ehromi, Giza (Misr), Balandligi 143 metr. Bunyod bo'lgan vaqti mil.avval 2500-yil.

* Toshkent teleminorasi 374 metr.

ENG BALAND INSHOOTLAR


III-maktabning ona tili va adabiyot fani o'quvchisi

Nazira TOSHOVA,

hali uni o'sib samara bergay.

etishdi. Unga o'zlarini «Yoshlar bog'i» deb nom qo'yishdi. Biz ekan nihollari O'quvchilarni har biri bitadan ko'chat o'iqazishib, mo'jazgina bog' barpo Maktabimizdagi gulzorlarni, sport maydonchasi va bog'ni aytmaydizmi? Birtiktirilgan maydonchalarni har doim oynadek yaraqlatib qo'yishadi. sidirib turishni, ozodalikni talab etadi. Maktabimiz o'quvchilari o'zlariga odamlarning nigohi tushib turadigan hududlar esa doimiy ravishda sportib- orgali kirib keladi. Shuning uchun maktabimiz atrofi gayjum. Hamisha Chorus bozoriga, Eski shaharga mashinalar karvonlari Chig'atoy darvoza Chig'atoy guzarida qadimda Toshkentning o'n ikki darvozasidan biri joylashgan. Hozir ham soltiladigan bozor.

Chig'atoy guzarida qadimda Toshkentning soltiladigan bozor. yog'li sut-qaymoqlar, meva-yu sabzavotlar shirin va chiroyli nonlari, mazali milliy taomlari-yu muqaddas mozor, bir yonida shaharning eng kabi buyuk allomalar orom olib yotgan Oybek, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxozoda Maktabimizning bir yonida G'afur G'ulom, darvoza guzarida joylashgan. eng qadimiy go'shalardan biri Chig'atoy maktabimiz Sobir Rahimov tumaniidagi Bizing 111-sonli umumta'lim



BOG'IMIZ NIHOLLARI

Muborak» muzeyida saqlanadi. Mushaf ham shu yerdagi «Mo'yi uchratishingiz mumkin. Usmon sayyoh va ziyoratchilarni joyda deyarli har kuni turli toifadagi va go'zal ziyoratgohiga aylandi. Siz bu Hozir bu yer tumanning eng so'lim etildi.

nihoyatda muhtasham Masjid bunyod holatga keltirildi. Hamda bu yerda instituti gayta ta'mirlanib, juda go'zal Imom Buxoriy nomi Toshkent Islom Muborak», Baroqxon madrasalari, Qatol Shoshiy maqbarasi «Mo'yi qurilish ishlari olib borildi. Xususan, bu yerda juda katta ta'mirlash va bevosita tashabbusi va rahnamoligida Prezident Islom bobongizning

Qadim Toshkentning o'n ikki darvozasidan biri. Aslida u Qushchi ota nomi bilan atalgan, uni muhofaza qilish Chig'atoy mahallasi zimmasiga tushganligi bois keyinchalik Chig'atoy darvoza deb yuritila boshlagan.

QORASAROV

Qadim Toshkentning o'n ikki darvozasidan biri. Aslida u Qushchi ota nomi bilan atalgan, uni muhofaza qilish Chig'atoy mahallasi zimmasiga tushganligi bois keyinchalik Chig'atoy darvoza deb yuritila boshlagan.

Qadim Toshkentning o'n ikki darvozasidan biri. Aslida u Qushchi ota nomi bilan atalgan, uni muhofaza qilish Chig'atoy mahallasi zimmasiga tushganligi bois keyinchalik Chig'atoy darvoza deb yuritila boshlagan.

Qadim Toshkentning o'n ikki darvozasidan biri. Aslida u Qushchi ota nomi bilan atalgan, uni muhofaza qilish Chig'atoy mahallasi zimmasiga tushganligi bois keyinchalik Chig'atoy darvoza deb yuritila boshlagan.

MAJMUOTNING BUGUNGI KO'RINISHI

buzib tashlashgan.

deb atalgan. Sho'rolar uni 1939-yilda «Qo'sh» uslubdagi Bobohoji maqbarasi to'g'risida yana bita maqbara bo'lgan. U Ha, Qatol Shoshiy maqbarasi

YANA BITTA MAQBARA BO'LGANMI?

Imom deb atay boshladilar. Xastimom nomini xalq keyinchalik Hazrati Qatol Shoshiy bobongizning

Qatol Shoshiy bobongizning nomini xalq keyinchalik Hazrati Imom deb atay boshladilar. Xastimom nomini xalq keyinchalik Hazrati Qatol Shoshiy bobongizning

XASTIMOM SO'ZINING TARIXI

CHIG'ATOV QADIMIY NOMI

QASIDAGA JAVOB

Bobongiz to'g'risida shunday rivoyat bor:

Qaffol Shoshiy bir safar shaharga kirib kelganda, ulamolarning nihoyatda sarosimada ekanliklarini ko'rdi. Vizantiya podshosi arab tilida xalifaga qasida yuborib: «Yo shunga munosib javob yozasan, yo o'lpon to'laysizlar yoki urushga tayyorgarlik ko'raveringlar», deb talab qo'ygandi.

Xalifalikda o'lponni to'lashga yetarli mablag' bo'lmaganligi, urushishga ham imkoniyat yo'qligi tufayli qasidaga javob yozmoqni ko'zladilar. Bag'dodning jamiki ulamo-yu fozillarini yig'ib, maqsadni tushuntirdilar, ammo ulardan sado chiqmadi. Xalifa tang ahvolda qoldi va: «Qasidaga javob yozadigan odamni yer ostidan bo'lsa ham topinglar!» deb saroydagilarni zir yugurtirdi, chunki g'anim elchisi ulami shoshiltirayotgan edi. Nihoyat, unga Shoshdan zabardast olim kelganini aytdilar. Xalifa uni huzuriga chorlab maqsadini tushuntirdi va «Shu ishni uddalasang, davlatimning yarmini beraman», deya va'da qildi. Qaffol Shoshiy ishga kirishib, tezda javob qasidani bitirdi va uni zudlik bilan Vizantiya podshohiga jo'natdilar. Javob qasidani o'qigan vizantiyaliklar, xususan, ularning lashkarboshisi Tag'fur dahshatga tushdi va: «Arablarda bunday zabardast va dovyurak shoir yo'q edi-ku!» deya yoqa ushladi.

G'oyat qiyin holatdan oson qutulgan Xalifa va'dasiga binoan Qaffol Shoshiyga davlatining yarmini taklif qiladi, ammo alloma boylikdan voz kechib: «Menga kutubxonangizdan birgina kitobni olishga ruxsat bersangiz, bas!» deydi. «Bu qiziq odam ekan», deya yana o'zicha shodlangan Xalifa istagan kitobingizni oling, deya unga ruxsatnoma beradi. Alloma bobongiz olamda noyob qo'lyozma hisoblangan Usmon Mushafini u yerdan olib, Shoshga jo'natadi. Kiyik terisiga yozilgan mazkur Qur'oni Karimni Kox ota boshliq alp yigitlar g'oyat katta qiyinchilik va qarshiliklarni yengib, Shoshga yetkazib keladilar.

Bundan xabar topgan vazirlardan biri Xalifaga: «Davlatingizning hammasini berib yuboribsiz!» deydi. Xalifa muqaddas kitobni qaytarishga shoshiladi, ammo endi kech edi.

Bexabar qolinmasinkim, Abu Muhammad qozi Andijoniy – Shoshiyning «Silsilatul-orifin» kitobida bu to'g'rida ma'lumot berilgan.

Bexabar qolinmasinkim, Abu Muhammad qozi Andijoniy – Shoshiyning «Silsilatul-orifin» kitobida bu to'g'rida ma'lumot berilgan.

«YO'QOLIB QOLDINGIZMI, OYIJON?»



Hovlida o'ynab yurgan ikki yoshli Nargiza ko'chaga chiqib ketdi. Aylanib yurib, adashib qoldi. Uning yolg'iz yurganini ko'rgan do'konchi amaki yoniga o'tqazib, qo'liga pomidor berib qo'ydi.

Qizchasining uyda yo'qligini payqagan Shoira opa ko'chaga yugurib chiqib, duch kelgan odamdan uni so'roqlay boshladi. Shu payt do'kon yonidagi o'rindiqa pomidor yeb o'tirgan qizchasiga ko'zi tushib, hayajondan yig'lab yubordi va qizchasini dast ko'tarib oldi.

– Oyijon, yo'qolib qoldingizmi? Bo'ldi, bo'ldi, yig'lamang, – derdi Nargiza onasining yuzlarini kir qo'lchalari bilan siypalab.

AZIZA

O'QITUVCHILAR TANAFFUSDA

Gazetadagi yangi sahifa menga juda yoqdi. Unda tengdoshlarimning tanaffusni qanday o'tkazayotganlarini o'qib, men ham sizlarga dam olish daqiqamiz haqida so'zlab bermoqchiman. Chunki bizning kollejda katta tanaffus o'zgacha o'tadi. Bo'lajak rassomlar tabiat qo'ynida rasm chizishadi. Libos bo'limidagi qizlar esa yangi modellar haqida gaplashishadi. Ayniqsa, bu payt o'qituvchilarga mazza-da! Nazarimda, ular bizdan dam olishadi. Axir qanchalar sho'x ekanimizni o'zimiz ham bilamiz.

Durdona MAQSUDOVA,
Respublika rassomchilik kollejining
san'atshunoslik bo'limi talabasi

QAHRAMONNI TUSHUNING

Bir kuni tanaffusda sinfdosh qizlar bilan serial-u kinolar haqida gaplashib qoldik. Dugonam «Jumong» serialini maqtay ketdi. To'g'ri, bu film vatanparvarlik haqida bo'lgani bois men ham tomosha qilganman. Lekin bugungi kinolardan ba'zi tengdoshlarimiz noto'g'ri xulosa chiqarishmoqda. Mahallamiz bolalari nuqul «Jumong, Jumong o'ynaymiz», deb baqirishadi. So'ng, bir-birini quvib, kamonlari bilan urush-urush o'ynashadi. Nima uchun ular filmdan noto'g'ri xulosa chiqarishmoqda? Balki ularga Jumong ona yurt ozodligi, xalqning farovonligi uchun kurashayotganini tushuntirish kerakdir. Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz haqida ham ko'plab filmlar yaratilsa, yaxshi bo'lardi.

Muxlisa AZIMOVA,
Toshkent yuridik kolleji
talabasi



AHMAD «JUMONG» BO'LMOQCHI

Serialni ko'rib, xo'p Orzusi to'lib-toshdi. Qo'lga olib kamon, cho'p Ahmad ko'chaga shoshdi. Jumong sanab o'zini, Og'zin ochib hayqirdi. Quvladi bolalarni, Urdi, turti, yiqitdi. Devorga ham sakradi, Tepdi daraxtni, uyni. Zinalarda yugurdi, Yiqilib, sindi bo'yni.

Shahnoza RAIMOVA,
Farg'ona shahridagi
4-maktabning 9-«V» sinf
o'quvchisi

XANDALAR

KO'CHAGA QAMALIB QOLDI

Ishdan qaytgan dadasiga eshikni ochmoqchi bo'lgan to'rt yoshli Odinaning qo'li eshik zanjiriga yetmadi. Urinishlari befoydaligini sezgach, onasining yoniga chopib borib dedi:

– Oyi, tezroq borib eshikni oching, dadam ko'chaga qamalib qolibdilar.



ALLA

– Oyi, bugun bog'cha opamiz kim birinchi uxlab qolsa, shokolad beraman, deb magnitofonda «Alla» qo'shig'ini qo'yib berdilar, – dedi besh yoshli Shohruh onasiga.

– Hoynahoy, shokolad senga tekkan bo'lsa kerak-a? – dedi o'g'lining uyquchiligini yaxshi bilgan onasi.

– Yo'q, birinchi bo'lib bog'cha opamizning o'zlarini uxlab qoldilar...



Jo'ra FOZIL

IRODANING «5» BAHOSI

Katta o'g'limning katta qizi Iroda jihatiga e'tibor qaratganimni tushuntirdim. o'shanda hali maktabga bormasdi. Lekin «5» va «4» baholarni ko'rib quvonib ketgan Iroda, «3», «2» baholardan behad xafa bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay u xonani tark etdi-yu, chamasi o'n daqiqalardan so'ng qaytib keldi. Uning qo'lida ikki varaq qog'oz bor edi. Qizaloq mendan ko'zlarini yashirishga harakat qilardi.

Kunlarning birida Irodaxon chizgan rasmlaridan to'rttasini menga tutqazdi-da: – Bobojon, rasmlaringa baho qo'yib bering, – dedi. Men ularni birma-bir ko'zdan kechirib, to'rtta rasmga to'rt xil baho – «5», «4», «3», «2» qo'ydim. So'ngra, rasmlarning qaysi



– Ha, Irodaxon, qayoqqa borib kelding? – so'radim undan.

– Bobojon, – dedi u yig'lam-sirab, – men... men «2» bilan «3» baho qo'yilgan rasmlarimni axlat qutisiga tashlab keldim... Endi menga «2», «3» qo'ymang, xo'pmi?..

TOPISHMOQLAR

Yer tagida yetilar,
Ko'p vitaminli bo'lar.
Shirasi bor, lek tuzsiz,
Palov pishmaydi usiz.


Yog'ib qolsa qor, yomg'ir,
Izlab qolasiz zir-zir.
Men-la boshingiz omon,
Men-la yo'lingiz ravon.

Kech kuzgacha uzilmas,
To yozgacha buzilmas.
Derlar: ming dardga davo,
Nomidir uning...

YAXSHI

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi iste'dodli shoira, taniqli jurnalist Feruza JALILOVAning «Davri qizi» kitobini nashrdan chiqardi.

Bolalar, siz bilasizki, bunday asarlar o'z-o'zidan yozilib qolmaydi. Davr shiddat bilan o'tib boryapti. Tarixda ham xuddi shunday o'tish davrlarida ezgulikni ko'ra olgan va insoniyatga ma'nan boyluk qoldirgan ijodkorlarning asarlarini hamon sevib o'qiyamiz. Alisher Navoiy bobongizning «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» asarlari ham shular jumlasidan bo'lib, ular osonlikcha yaratilmagan.



«Davri qizi» ham uyqusiz tunlarni, yurak og'riqlarini, ijod mashaqqatini boshidan kechirdi.

Asarga muharrirlik qilib, bildimki, Feruza opa o'z bog'ining kamtar, nozik va o'ktam sohibasi. Har bir satri bir nihol bo'lsa,

KITOBILAR

unga butun mehrini berib qaraydi. Ijodkor uchun toza qalb, pokizalik va yurt tuyg'usi juda muhim. Kim qanday bo'lsa, uning asaridan o'sha hid keladi. Bolajon, o'smir yigit-qiz, Siz «Davri qizi»ning qalbiga oyna tutib ko'ring: unda jilvakor samoni, to'lin oyni, taftli quyoshni ko'rasiz, muattar hidi esa dimog'ingizni chog' qiladi. Maqtov esa o'z yo'lga.

Quyoshni maqtashdan foyda yo'q. Ammo unga qarab: «Nuring bilan siylaganing uchun shukur!» deb qo'yish burchimizdir. «Davri qizi»ni o'qib, asar qahramoni singari davrdan ortda qolmaslikni anglab olsangiz, bu – juft yutuq. Bizga ham, Sizga ham shunisi kerak. Keling, hammamiz birgalikda Feruza opangizni «Yangi kitob muborak!» deya qutlab qo'yaylik!

To'lqin HAYIT

Xullas, asarga bahoni o'zingiz berasiz. Biz hamkasblar esa ikki og'iz dil so'zimizni aytishga shoshildik. Hali unga sharhlar, taqrizlar yozilishi aniq.

BOR



Tengdoshingiz Mohinur Muhammadjonovaning «Nastarin» nomli ilk kitobi «Tafakkur bo'stoni» nashriyoti tomonidan nashr etildi. Yosh qalamkash do'stingiz Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi 14-maktabida tahsil oladi. Bo'sh vaqtlarida she'rlar mashq qiladi va ular orasida ko'zga tashlangan satrlar ham bor.

Baland tog'lar tog' emas,
Ul otamning bardoshi.

Biz Mohinurga o'tli she'rlar bitib, shu Vatan va el uchun chinakam xizmat qilishiga tilakdoshmiz.



Shayxontohur tumanidagi 82-maktab o'quvchilari maktab rahbari Nodira Abdurahmonova boshchiligidagi «O'zbekiston» NMI'da nashr etilgan yangi kitoblar bilan tanishishayapti.

VILOYATLARDA «KITOB BAYRAMI»

Prezidentimizning 2006-yil 31-martdagi «Umumta'lim maktablarini darsliklar bilan ta'minlash tizimini takomillash-tirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi, «O'zbekkitobsavdo» davlat aksiyadorlik kompaniyasi bilan hamkorlikda ko'rgazma-yarmarkasi o'tkazildi.

Bu yilgi ko'rgazma-yarmarkaning ilk namoyishi Toshkent shahri va Toshkent viloyati bo'yicha 13-noyabr kuni Respublika o'quvchilar saroyida boshlandi.

Ko'rgazma-yarmarkasining ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari R.Ahliiddinov, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Bosh direktorining birinchi o'rinbosari O'.Jo'rayevlar so'zga chiqdilar.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Raisining birinchi o'rinbosari, O'zbekiston Xalq shoiri Sirojiddin Sayyid noshir va adiblarni, muallim va o'quvchi-talabalarni katta kitob bayrami bilan qizg'in qutladi.

Ana shunday ko'rgazma-yarmarkalar Qashqadaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida 15-noyabr, Farg'ona viloyatida 18-noyabr, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida 19-noyabr kunlari viloyatlarning Axborot-kutubxona markazlarida davom ettirilmoqda.

Muxbirimiz ko'rgazma-yarmarkani o'tkazish respublika tashkiliy qo'mitasi raisi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Bosh direktorining birinchi o'rinbosari O'tkir Jo'rayev bilan uchrashib, ushbu muhim tadbirning ahamiyati haqida so'zlab berishni iltimos qildi.

– Bu yil uchinchi bor o'tkazilayotgan ko'rgazma yildan-yilga tajribalar hisobiga takomillashib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Unga Respublikamizning ko'zga ko'ringan nashriyotlari tomonidan nashr etilgan yangi o'quv darsliklari, huquqiy-siyosiy, badiiy adabiyotlar va plakatlarni

taqdim etilgan. Xususan, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tizimidagi «O'zbekiston», «O'qituvchi», «G'afur G'ulom», «Cho'lpon» nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uylari hamda «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat-ilmii nashriyotining 167 nomdagi 1739 ta darslik, 44 nomdagi 603 dona turli mavzudagi adabiyot va plakatlari namoyish etilmoqda. Bundan tashqari, «Sharq», «Ma'naviyat», «Turon-iqbol», «Yangiyo'l poligraf-servis», «Yangi nashr», «Yangi asr avlodi», «Art fleks» kabi nashriyotlar ham o'zlarining darslik va yangi nashr qilingan adabiyotlari bilan qatnashmoqdalar. 2008-yilgi ko'rgazma-yarmarkaga nashriyotlar tomonidan jami 310 nomda 3066 dona o'quv darsliklari, ijtimoiy adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar taqdim etilishi nazarda tutilgan.

Bulardan ko'zlangan asosiy maqsad, joylardagi mavjud holat bilan yaqindan tanishish, darsliklarning yangi avlodini yaratish borasida mutaxassis-pedagoglarning fikrlarini o'rganishdan iboratdir. Shuningdek, ko'rgazma doirasida nashriyotlarning Respublikamiz Konstitutsiyasining 16 yilligiga bag'ishlab maxsus ko'rgazma tashkil etilib, unda nashriyotlarimiz tomonidan nashr etilgan ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy sohalarga oid adabiyotlar ham namoyish etiladi, suhbat va uchrashuvlar o'tkaziladi.

Tadbirda namoyishga qo'yilgan darslik va badiiy adabiyotlar haqida «Fikr-mulohaza va takliflar» daftarlari tashkil etiladi va yangi kitoblarning taqdimot marosimlari o'tkaziladi. Muallif adib va shoirlar, olim va mutaxassislarning o'quvchilar bilan uchrashuvlari tashkil etiladi.

Ko'rgazmada ochiq savdoga chiqarilmagan o'quv darsliklari bo'yicha ham buyurtmalar olinadi.

Bildirilgan taklif-mulohazalar mutaxassislar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarni yangi nashrga tayyorlashda to'la inobatga oladilar.



ULKAN CHOYNAK



Angliyada ulkan chinni choynak bor. Uning bo'yi 3,3 metr bo'lib, ichining kengligi 5,4 metrdir. Bu choynak yolg'iz bo'lmay, uning ulkan likopchasi va dastali piyolasi ham bor.

Angliyalik hamkasblardan qolishmaymiz, deb samarqandlik chinnisozlar ham katta choynak ishlab chiqarishga urinib ko'rishdi. Bir necha dona va turli nusxada bo'lgan bu choynakning bo'yi 30 santimetr, eni esa 35 santimetr. Ichiga yetti litr suv ketadi.

ENG UZUN BO'YINBOG'

Bizning yurtimizda ham bo'yinbog' ishlab chiqarishadi, biroq, rekord o'rnatish uchun emas, aksincha, erkaklar uchun. Fransiyaning Tuluza shahridagi bo'yinbog' to'quvchilar yangi



rekord o'rnatishdi. Yangi tikilgan bo'yinbog' 61 metrni tashkil etadi. Shu paytgacha rekordlik shohsupasida turgan italiyaliklarning 44 metrli bo'yinbog'lari endilikda ortda qoldi.

TISH NEGA OG'RIYDI?

Buning sababi ko'p. Ular orasida shunday bir sabab ham bor: tishimiz ba'zan zirak taqishdan ham og'rir ekan. Bunday qaraganda, zirak taqish beozor bir ishga o'xshaydi. Quloqning yumshoq joyini teshasiz-u, yangi zirakni taqib olasiz. Aslida bu ish unchalar oson emas ekan. O'sha zirak taqiladigan yumshoq joyda ko'z, tish, til, yuz muskullari, quloq bilan bog'liq 11 ta nuqta mavjud ekan. Agar ozgina ehtiyotsizlik qilib quloqni teshayotganda ana shu nuqtalardan birini, aytaylik, tish nuqtasini jarohatlab qo'yishimiz natijasida tish og'rig'i kelib chiqishi mumkin.



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092

Adadi - 26175
Buyurtma N: J 6337

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi:
Gulyuz ORIFJONOVA